ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 01.08.2026 · Accepted: 13.09.2026 · Published: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/j7wjw062

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

XX asr Qashqadaryo hamda Surxondaryo baxshilarining ijodini o‘rganishda folklor ekspeditsiyalarining ahamiyati (1955-1961-yillar misolida)

(The Significance of Folklore Expeditions in the Study of the Creative Heritage of Kashkadarya and Surkhandarya Bakhshis in the Twentieth Century (Based on the Expeditions of 1955–1961)

Zohidjon Yakubov

Department of Music Art,
Fine Arts Institute of the Academy
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
100029, Mustaqillik maydoni, 2
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: zyakubov93@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada XX asr o‘rtalarida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida faoliyat yuritgan baxshilar ijodini o‘rganishda folklor ekspeditsiyalarining ilmiy-manbaviy ahamiyati yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti tomonidan 1955-1961-yillarda amalga oshirilgan ekspeditsiyalar davomida to‘plangan dala hisobotlari, ijrochilarga oid kartochkalar, repertuar ro‘yxatlari, doston matnlari, nota transkripsiyalari va magnit yozuvlar asosida baxshichilik an’analarining tarixiy holati tahlil qilinadi. Xususan, Xudoyqul Niyozov, Mardon Avliyoqulov kabi baxshilar faoliyati hamda “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Avaz”, “Yozi va Zebo” singari dostonlarga oid qaydlarning manbashunoslik qiymati ochib beriladi. Ekspeditsiya materiallari baxshilarning repertuari, ustoz-shogird an’analari, ijro uslubi, badihaviylik va variantlilik xususiyatlarini o‘rganish imkonini berishi asoslanadi. Shuningdek, mazkur arxiv manbalarini zamonaviy restavratsiya, raqamlashtirish va kataloglashtirish jarayonlari ularni saqlash hamda ilmiy muomalaga kengroq kiritishda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: folklor ekspeditsiyasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, baxshichilik san’ati, dostonchilik, baxshi, folklor arxivi, repertuar, magnit yozuv.

Abstract

The article examines the scholarly and source-based significance of folklore expeditions for the study of the creative activity of bakhshis who performed in the Kashkadarya and Surkhandarya regions in the mid-twentieth century. Drawing on field reports, performer information cards, repertoire lists, epic texts, musical

transcriptions, and magnetic tape recordings collected during expeditions conducted by the Institute of Art Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan between 1955 and 1961, the study reconstructs important aspects of the historical state of the bakhshi performance tradition. Particular attention is given to materials concerning such performers as Khudoyqul Niyozov and Mardon Avliyoqulov, as well as archival records related to the epics “Gorogly”, “Alpomish”, “Avaz”, and “Yozi va Zebo”. The study demonstrates that expedition materials provide valuable evidence for investigating bakhshi repertoire, master-disciple traditions, performance styles, improvisation, and variability in epic performance. The article also emphasizes the importance of the restoration, digitization, and cataloguing of these archival materials for their long-term preservation and wider introduction into scholarly circulation.

Keywords: folklore expedition, Kashkadarya, Surkhandarya, bakhshi art, epic performance, bakhshi, folklore archive, repertoire, magnetic tape recording.

Аннотация

В статье рассматривается научное и источниковедческое значение фольклорных экспедиций для изучения творческой деятельности бахши, выступавших в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях в середине XX века. На основе полевых отчетов, карточек исполнителей, репертуарных списков, текстов эпосов, нотных расшифровок и магнитофонных записей, собранных в ходе экспедиций Института искусствознания Академии наук Узбекистана в 1955–1961 годах, реконструируются важные аспекты исторического состояния бахшийской исполнительской традиции. Особое внимание уделяется материалам, связанным с такими исполнителями, как Худойкул Ниёзов и Мардон Авлиёкулов, а также архивным записям эпосов «Гёроглы», «Алпомиш», «Аваз» и «Ёзи ва Зебо». Исследование показывает, что экспедиционные материалы представляют ценное свидетельство для изучения репертуара бахши, традиций «устоз–шогирд», исполнительских стилей, импровизации и вариативности эпического исполнения. В статье также подчеркивается важность реставрации, оцифровки и каталогизации этих архивных материалов для их долговременного сохранения и более широкого введения в научный оборот.

Ключевые слова: фольклорная экспедиция, Кашкадарья, Сурхандарья, искусство бахши, эпическое исполнительство, бахши, фольклорный архив, репертуар, магнитофонная запись.

XX asr o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va an’anaviy ijrochilik san’atini o‘rganishda folklor ekspeditsiyalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ekspeditsiyalar jarayonida xalq orasida yashab kelayotgan og‘zaki ijod namunalari, ijrochilik an’analari, mahalliy repertuar, baxshilarning ijro uslubi va ijodiy faoliyatiga oid ko‘plab ma’lumotlar bevosita tabiiy muhitda qayd etilgan. Bunday materiallar muayyan hududning folklor jarayonini faqat nazariy jihatdan emas, balki uning jonli ijro amaliyoti bilan bog‘liq holda tadqiq etish imkonini beradi. O‘tgan asrning o‘rtalaridan to mustaqillik davrigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti tomonidan respublikamiz va qo‘shni hududlarda qator folklor ekspeditsiyalari olib borilgan. Mazkur maqolada 1955-1961-yillar oralig‘ida Qashqadaryo hamda Surxondaryo hududlarida o‘tkazilgan ekspeditsiyalar xususida so‘z yuritiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari o‘zbek baxshichilik san’atining qadimiy va barqaror an’analari shakllangan mintaqalardan hisoblanadi. Mazkur hududlarda dostonchilik uzoq davr mobaynida xalqning ma’naviy hayoti, tarixiy xotirasi va badiiy tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Baxshilar tomonidan avloddan-avlodga yetkazilgan dostonlar va unga doir og‘zaki ijod namunalari mahalliy ijrochilik an’analarining muhim qismini tashkil etgan. Shu sababli Qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari faoliyatini o‘rganish nafaqat alohida ijrochilar ijodini yoritish, balki janubiy hudud dostonchilik muhitining umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrning o‘rtalarida ushbu hududlarda olib borilgan folklor ekspeditsiyalari baxshichilik merosini ilmiy asosda qayd etish va saqlashda muhim bosqich bo‘ldi. Xususan, 1955, 1956, 1958 va 1961-yillarda Qashqadaryo hamda Surxondaryo hududlariga uyushtirilgan ekspeditsiyalar davomida xalq og‘zaki ijodining turli namunalari bilan bir qatorda baxshilar repertuari, doston ijrochiligi va ayrim ijrochilarning ijodiy faoliyatiga oid ko‘plab materiallar yozib olingan. Mazkur

yozuvlar o‘sha davrdagi baxshichilik muhitini, repertuar holatini, ijro an’analarini va ijrochilar faoliyatini tarixiy jarayon doirasida o‘rganish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Folklor ekspeditsiyalari natijasida to‘plangan materiallarning qimmati shundaki, ular baxshichilik an’anasining muayyan tarixiy davrdagi real holatini aks ettiradi. Yozib olingan dostonlar va ijro namunalari orqali repertuarning tarkibi, bir asarning turli ijrochilar talqinidagi xususiyatlari, mahalliy ijro uslublari hamda ustoz-shogird an’analarining davomiyligini kuzatish mumkin. Shuningdek, ekspeditsiya materiallari ayrim baxshilar haqida boshqa yozma manbalarda uchramaydigan ma’lumotlarni aniqlash, ularning ijodiy merosini qayta tiklash va ilmiy muomalaga kiritish imkonini ham beradi.

Qashqadaryo va Surxondaryo baxshichilik an’analarini XX asr kesimida o‘rganishda folklor ekspeditsiyalari davomida to‘plangan materiallar birlamchi manbalar qatoriga kiradi. Ularning ahamiyati faqat ayrim doston yoki termalarning yozib olingani bilan cheklanmaydi. Ekspeditsiya hujjatlarida ijrochining shaxsi, yashash joyi, ijodiy yo‘nalishi, repertuari, ustozlari, ijrochilik tajribasi, shuningdek, muayyan namunaning qachon va qanday sharoitda yozib olinganiga oid ma’lumotlar ham qayd etilgan. Shu jihatdan bunday hujjatlar baxshichilik san’atining muayyan tarixiy davrdagi holatini qayta tiklash imkonini beradigan yaxlit manbalar majmuasini tashkil etadi.

1955-yil 14-maydan 15-iyungacha Surxondaryo viloyatida o‘tkazilgan folklor ekspeditsiyasi mazkur yo‘nalishdagi muhim ilmiy izlanishlardan biridir. Ekspeditsiyaga Fayzulla Muzaffarovich Karomatov rahbarlik qilgan. Saqlanayotgan materiallar tarkibida ekspeditsiya kundaligi, dala hisoboti va xalq musiqachilari bo‘yicha ma’lumotlarni aks ettiruvchi maxsus kartochkalar mavjud. Bundan tashqari, yozib olingan har bir musiqiy namuna bo‘yicha ham kartochkalar tuzilgan. Mazkur ekspeditsiyaning Surxondaryo hududida amalga oshirilgan ilk musiqiy-

etnografik ekspeditsiya sifatida tavsiflanishi dala hisoboti orqali ma’lum bo‘ldi. Ekspeditsiya oldidan hududning o‘ziga xos xususiyatlari, ilgari o‘tkazilgan folklor tadqiqotlari natijalari hamda, ayniqsa, Sherobod maktabi baxshilari haqidagi mavjud ma’lumotlar o‘rganilgani ko‘rsatilgan.

Ekspeditsiyaning baxshichilik san’atini o‘rganishdagi ahamiyati dala hisobotida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, 1955-yil 25-may kuni Sherobod tumanidagi Kirov nomli xo‘jalikda Xudoyqul baxshidan “Go‘ro‘g‘li” dostoniga oid parchalar yozib olingani qayd etilgan. Hisobotda baxshining yoshi ulg‘aygani sababli talaffuzi va ovozini aniq qayd etishda qiyinchilik tug‘ilgani, shu bois dostonni to‘liq yozib olish imkoni bo‘lmagani ham ochiq bayon etiladi. Eng e’tiborli jihati shundaki, baxshi bir parchani qayta ijro etganida uni avvalgi shaklida aynan takrorlamagan. Bu kuzatuv baxshi ijrosining qat’iy yodlangan matnni takrorlashdan iborat emasligini, ijro jarayonida muayyan darajadagi erkinlik va badihaviylik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadigan muhim dalildir. Umuman olganda, bu jihat o‘zbek an’anaviy musiqasining barcha janrlariga xos bo‘lib, ijrochi har bir namunani ijro etishda badihaviylik va variantlilikka asoslanadi; har bir ijro o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamagan va betakror hisoblanadi.

Ekspeditsiya materiallari orasidagi xalq musiqachilari kartochkalari esa baxshi shaxsini alohida ijodkor sifatida o‘rganish imkonini beradi. Masalan, Mardon Avliyoqulovga tuzilgan kartochkada uning tug‘ilgan yili, yashash joyi, xalq ijodidagi faoliyat sohasi, tor ixtisosligi, ustozidan ta’lim olishi, mustaqil faoliyat boshlagan davri, tanlov va olimpiadalardagi ishtiroki, repertuari hamda undan yozib olingan namunalar haqidagi ma’lumotlar berilgan. Kartochkada uning faoliyat sohasi baxshilik-dostonchilik bilan bog‘langan, repertuarida “Go‘ro‘g‘li” va “Avazxon” kabi doston nomlari qayd etilgan. Bunday hujjat baxshini faqat muayyan asarning ijrochisi sifatida emas, balki o‘z ustozlik maktabi, repertuari va ijodiy tarjimai holiga ega san’atkor sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Xudoyqul Niyozovga tegishli kartochka ham shu jihatdan alohida ahamiyatlidir. Unda baxshining 1879-yilda tug‘ilgani, xalq ijodidagi faoliyati doston va terma bilan bog‘liqligi, baxshilik uning asosiy mutaxassisligi ekani ko‘rsatilgan. Shuningdek, uning uzoq yillik ijrochilik tajribasi va repertuarida “Go‘ro‘g‘li” turkumining mavjudligi qayd etilgan. Ushbu ma’lumotlarni dala hisobotidagi Xudoyqul baxshidan “Go‘ro‘g‘li” parchalarining yozib olingani haqidagi qaydlar bilan birgalikda ko‘rib chiqish bir ijrochiga oid turli hujjatlarni o‘zaro solishtirish imkonini beradi. Natijada baxshining tarjimayi holi, repertuari va ekspeditsiya paytidagi real ijrosi bir-birini to‘ldiruvchi manbalar sifatida namoyon bo‘ladi.

1955-yilgi ekspeditsiyada materiallarni qayd etish birgina matn ko‘chirish bilan chegaralanmagan. Ekspeditsiya papkalarida qo‘shiq va cholg‘u kuylarining pasportlari, matnlari, nota transkripsiyalari hamda yozib olingan namunalarning ro‘yxatlari saqlangan. Nota yozuvlarini tayyorlashda F.M. Karomatov bilan bir qatorda boshqa mutaxassislar ham ishtirok etgani papka muqovasida ko‘rsatilgan. Bu hol ekspeditsiya amaliyotida og‘zaki an’anani imkon qadar ko‘p qirrali tarzda hujjatlashtirishga intilish bo‘lganini ko‘rsatadi. Baxshining shaxsi va repertuari haqida kartochka tuzilishi, ijroning ovozli shaklda qayd etilishi, matnning yozib olinishi hamda ayrim musiqiy namunalarning notaga tushirilishi bir-birini to‘ldiruvchi tadqiqot usullarini yuzaga keltirgan va bugungi kunda tadqiqotchilar uchun mukammal manba sifatida xizmat qiladi.

1956-yil 3-iyuldan 3-avgustgacha Qashqadaryo hududida o‘tkazilgan ekspeditsiya materiallari ham janubiy mintaqa folklorini o‘rganish ko‘lami ancha keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Ekspeditsiyaga F.M. Karomatov rahbarlik qilgan bo‘lib, papka tarkibiga qo‘shiqlar va cholg‘u kuylarining ro‘yxatlari, ularning pasportlari, matnlari hamda ayrim yozuvlarning transkripsiyalari kiritilgan.

Qashqadaryo ekspeditsiyasi ro‘yxatida ham aynan dostonchilikka daxldor bir qator qaydlar ham uchraydi. Jumladan, “Avaz” nomi “dostondan parcha” sifatida

ko‘rsatilgan. Shu ro‘yxatning o‘zida “Alpomish”dan parcha qayd etilgan, shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” dostoniga oid bir necha parcha mavjudligi alohida belgilangan. Mazkur ma’lumotlar 1956-yilda Qashqadaryoda faol bo‘lgan xalq ijrochilari repertuarida epik asarlar muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ayni dostonlarning turli baxshilar repertuarida qayd etilishi keyinchalik ijro variantlari, matn farqlari, musiqiy talqin va hududiy uslub masalalarini qiyosiy o‘rganish uchun asos yaratadi.

1961-yilgi Surxondaryo folklor ekspeditsiyasiga oid saqlangan papkalar esa ekspeditsiya materiallarining keyinchalik tizimli tarzda tartibga solinganini ko‘rsatadi. Papkalardan birida “Yozi va Zebo” dostoni matni keltirilgan. Bundan tashqari, mazkur dostonning audio yozuvi ham magnit tasmalariga yozib olingan bo‘lib, bu hol ekspeditsiyalarda faqat qisqa namunalar emas, katta hajmdagi epik matnlarni qayd etishga ham alohida e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. Yana bir papka L. Karomatova tomonidan 1961-yilgi Surxondaryo folklor ekspeditsiyasi magnit yozuvlariga tuzilgan kartochkalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur kartochkalar 1971–1972-yillarda tartibga keltirilgan bo‘lib, ular F.Karomatov arxivida saqlab kelingan. Demak, ekspeditsiya davomida yig‘ilgan ovozli materiallar keyingi davrda ham ilmiy foydalanish uchun tavsiflanib, tizimlashtirilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, 1955-1961-yillardagi ekspeditsiyalarni faqat folklor namunalarini yig‘ishga qaratilgan safarlar sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ularda qo‘llangan hujjatlashtirish tizimi baxshichilik ijodiyotini bir necha yo‘nalishda o‘rganish imkonini beradi. Dala hisoboti ijroning tabiiy muhitini va yozib olish jarayonini yoritadi, shaxsiy kartochkalar baxshining tarjimai holi hamda ijodiy shakllanishiga oid ma’lumot beradi, repertuar ro‘yxatlari epik asarlarning tarqalishini ko‘rsatadi, matn va magnit yozuvlar esa ijroning bevosita namunasini saqlaydi. Bu manbalarni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish orqali XX asr

o‘rtalaridagi Qashqadaryo va Surxondaryo baxshichilik muhitining ancha yaxlit manzarasini tiklash mumkin.

Ayniqsa, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Avaz” singari dostonlarga oid qaydlarning turli yillardagi ekspeditsiya hujjatlarida uchrashi mazkur asarlarning janubiy hudud baxshilari repertuaridagi o‘rnini tarixiy materiallar asosida kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekspeditsiya hujjatlari baxshichilikni faqat doston matni nuqtayi nazaridan emas, balki ijrochi, repertuar, ijro jarayoni, yozib olish muhiti o‘rtasidagi yaxlit munosabat doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Aynan mana shu xususiyat 1955-1961-yillarda yig‘ilgan folklor-ekspeditsiya materiallarining bugungi dostonchilik san’ati tadqiqotlari uchun ilmiy qiymatini belgilaydi.

Qayd etish joizki, bugungi kunda mazkur ekspeditsiya materiallari, boshqa shu kabi muhim hujjatlar va audioyozuvlarni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti hamda Avstriya Fanlar Akademiyasi Fonogrammarxivi bilan hamkorlikda, Volkswagen jamg‘armasi homiyligida amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San’atshunoslik instituti Fonotekasi infrastrukturani rivojlantirish va salohiyatni oshirish bo‘yicha uch tomonlama loyiha (D-UZ-A): Fonoteka audiokolleksiyalari va u bilan bog‘liq materiallarni restavratsiya qilish, raqamlashtirish, kataloglashtirish va raqamli shaklda saqlash” Xalqaro loyihasi doirasida raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi musiqashunos-tadqiqotchilar, ijrochilar hamda ushbu soha vakillarini qimmatli ma’lumotlar bazasi bilan ta’minlab, kelgusi tadqiqotlar uchun muhim manbalarni yuzaga chiqaradi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti “Etnomusiqashunoslik va zamonaviy musiqa” bo‘limining “Janubiy O‘zbekiston dostonchilik san’ati (O‘zR FA San’atshunoslik institutining 1955-1961-yillar manbalarida)” dasturi doirasida amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сурхандарьинская экспедиция 1955 г. – Ташкент: Библиотека Института искусствознания АН УзССР, 1955. – 86 л. – Инв. № 327.
2. Кашкадарьинская экспедиция (3 июля – 3 августа 1956 г.). – Ташкент: Библиотека Института искусствознания АН УзССР, 1956. – 250 л. – Инв. № 372.
3. Сурхандарьинская фольклорная экспедиция 1961 г. – Ташкент: Библиотека Института искусствознания АН УзССР, 1961. – 194 л. – Инв. № 544.
4. Mulladjanova X. J. Variability in modal modes (using the example of music by composers of Uzbekistan) // European Journal of Arts. – 2024. – № 1. – P. 27–30. – DOI: 10.29013/EJA-24-1-27-30.

References

1. *Surkhandar’inskaya ekspeditsiya 1955 g.* [Surkhandarya Expedition of 1955]. Tashkent: Biblioteka Instituta iskusstvoznaniya AN UzSSR, 1955. 86 fols. Inv. no. 327. (in Russian)
2. *Kashkadar’inskaya ekspeditsiya (3 iyulya–3 avgusta 1956 g.)* [Kashkadarya Expedition (July 3–August 3, 1956)]. Tashkent: Biblioteka Instituta iskusstvoznaniya AN UzSSR, 1956. 250 fols. Inv. no. 372. (in Russian)
3. *Surkhandar’inskaya fol’klornaya ekspeditsiya 1961 g.* [Surkhandarya Folklore Expedition of 1961]. Tashkent: Biblioteka Instituta iskusstvoznaniya AN UzSSR, 1961. 194 fols. Inv. no. 544. (in Russian)
4. Mulladjanova, X. J. “Variability in Modal Modes (Using the Example of Music by Composers of Uzbekistan).” *European Journal of Arts*, no. 1 (2024): 27–30. https://doi.org/10.29013/EJA-24-1-27-30.